

Abduhalilova Mohinur To'xtamirzayevna

Namangan viloyati Norin tumani 37-maktab o'quvchisi.

Qish kunlari.Tashqari juda sovuq.Qor yog'yapti.Mehribonlik uyidagi Lazizbek negadur xafa kōrinardi.Chunki 3yil avval ayni qish paytida ota-onasi uni shu yerga tashlab ketgan edi.U qish faslini yomon kōradi.Garchi boshqa bolalar bu faslni yaxshi kōrishi,maza qilib ōynasalar ham.Taqdir taqazosi bilan Lazizbek 31-dekabrda tug'ilgan.Bu yil 10yoshga kiradi.Oradan 5 kun ōtgach uni tavallud kuni bōldi.Hamma u uchun xursand,uni tug'ilgan kuni bilan barcha mehribonlik uyidagilar tabriklashyapti.Afsus lekin Lazizbekni kōngliga bu sig'maydi.U hali hamoon tug'ilgan kuniga ota-onasi sovg'a qilgan ōyinchoqlari bilan deraza yonida ota-onasini kutardi...

KITOBNING ZIYNATI

15 yoshli Omadbek ismli bir bola qishloq chekkasida,oddiy oilada,devorlari pastdan bōlgan uyda yashardi.Lekin juda aqli,fikrlashi juda ham keng bōlgan,ōqishga qiziquvchan. Jamshid esa ōziga tōq,boy oiladan.Otasini qōli qayerga uzatsa,ōsha yerga yetadigan kishi.U ham xuddi shu yoshda.Jamshid uchun otasi hamma sharoitni yaratib bergan, ammo u umuman ōqishga qiziqmas,maktabda ham ba'zida kōrinib turadi.U telefon ōynashni yaxshi kōradi.Hattoki ōzini shaxsiy telefoni ham bor.Omadbek ma'suliyati cheklangan bolalardan.Ya'ni uni ikkala qōli ham yōq.U kichik bir uyda onasi bilan yolg'iz yashaydi.Omadbekni otasi uni yoshligida vafot etgan ekan.Bir kuni u shunaqa narsa ōylab topdiki,bu hali hech kimning hayoliga kelmagan.Bu g'oyasini amalga oshirish uchun tun-u kun ōqib izlandi.Jamshid esa kundan kunga telefonga berilib ketdi.Omadbekni rejasi yuzaga chiqdi.U ōzi uchun maxsus protez qōllar yaratdi.Endi Omadbek ōz qōllari bilan yoza oladi,ishlarini ham qōllari bilan bajara oladi.Avvallari u qōl yordamida amalga oshiradigan ishni oyoqlari orqali qilardi.Bu holatni onasi kōrib,bir tarafdin quvonsa,ikkinchi tarafdin kōz yoshdan ōzini tōxtata olmasdi.Omadbekni bugun orzulari ushaladi.U birinchi bor maktabga boradi.Chunki u oldin yakka tartib ōquvchilar qatorida edi.Maktab ostonasiga qadam bosarkan qandaydir ichini hayajon bosardi.Dars boshlandi.Qarangki,hayot charxpalak u bilan bir sinfda Jamshid ham telefon ōynaguncha ōtirardi.Dars tugagandan sōng Omadbek Jamshidni oldiga bordi.Dōstim nimaga dars paytida telefon ōynab ōtiribsan dedi.Jamshid seni ishing bōlmasin deguncha telefon ōynashda davom etdi.Bir kuni fanlar olimpiadasida Omadbek qatnashib 1-ōrinni oldi va unga sovg'a sifatida sōnggi rusumdagi telefon berildi.Buni kōrgan Jamshid Omadbekni yoniga bordida,telefoningni bir kōray dedi.Hōp mayli kōraqol deb telefonni unga uzatdi.Telefonni kōrib Jamshid bunga zōr

ōyinlar ōtkazib beraman, birga ōynaymiz dedi. Omadbek yōq bu telefonni onamga beraman deb javob qildi. Jamshidni yuzi bir qizardi. Dōstim men ham shunday yutuqqa qanday erishsam bōladi deya savol berdi. Omadbek: dōstim bu oson, kel yaxshisi ikkimiz tayyorlanamiz. Oradan vaqtlar ōtdi. Fan olimpiadasida Omadbek ham Jamshid ham qatnashdi. Jamshid buni natijasini kutib yashadi. Biroz muddat ōtgach, ikkalalari ham 1-ōrinni olishgani haqidagi xabarni eshitishdi, shu yutuqqa birgalikda erishishdi. Jamshid telefon ōynashni tōxtatib kitob ōqishga kirishdi. Jamshid Omadbekka rahmat aytdi. Chunki uni bu yōldan qaytargani uchun. Hozir ikki dōst maktabning eng oldi ōquvchilaridan. Qissadan hissa shuki, kitob doim yaxshi yōlga boshlaydi. Oramizda Omadbekka ōxshagan insonlar kōpaysin.

HODISALAR

Daryo o'zanidan toshdi, baxaybat
Ajdarxo misoli uch-to'rt qishloqqa.
Bir yoqda zil-zila, oy tutilishi,
Aprelda qor yog'di tishladik yoqa.
Sabablarin o'ylab topdim nihoyat,
Bildim, qayerdadir notinchdir zamon.
Bir nodon do'stiga qildi xiyonat,
Boshqoq zardasidan sarg'aydi somon.
Poraxo'r, fojir-u vatangadolar,
Urchib ketganidan yer sapchigandir.
Insonlar yuragi loyqaligidan,
Daryo ham u yonu buyon ko'chgandir.
Shohida ustoziga musht urdimikan,
Ustoz shogirdini ayladimi xor.
Shuning uchun tuyilgandir alamdan
Oyning bag'riga ham yoqqandayin qor.
Eng aziz ne'matlar darg'azab bizdan,
Jinoyat maskani emas bu zamin.
Birgina zorim bor siz o'g'il-qizdan,
Avlodlar baxtini qilmaylik zomin.
Xafalar qilibmiz oyni, quyoshni,
Erta-indinni ham bir dam o'ylaylik.
Iymonni, insofni toblab bardoshga,
Yaratganni zinxor xafa qilmaylik.

25-APREL

Ijodxona. Tokchada bir gul,
Na qarabman, na suv solibman
O'z aksimni ko'rsatar nuqul,
Demak, so'libman.
Tartibsizdir to'rtta tomonim,
Stul, shkaf, kitob javonim,
O'tar shunday ulug' ayyomim,
Demak, tolibman.
O'qiganim tuyular chigal,
She'rlarim ham soyoq va dag'al,
Xotiralar pand berar har gal,
Demak, to'libman.
Kutdim rosa to tongga qadar,
Umidim a kezar darbadar.
Ism-u jismim yoqmasa agar,
Demak, o'libman...

TAQVIM

Har faslning har bir kunida,
Har onida intixo, ro'yo.
Devordagi taqvim jismida,
Abadiylik jo bo'lgan go'yo.
Davru zamon yillar o'tsa ham,
Mahobati mo'jizaga xos.
Biz bilgan shu tanish raqamlar,
"Tarix" nomin yaratgani rost.
Lol qoldim men bir haqiqatga,
Ajrin halol olarkan ular.
Sanalar so'ylagay insoniyatga,
O'zgarmasin kun kelib bular.
ONAMNI HO'P, YIG'LATMANG OTA
Qirq joniga qirq ming azob,
Yashayapti zardobin tota.
Jahl kelsa yo'qotmay odob,
Onam ho'p, yig'latmang ota.
To'qchilikda qilib xarxasha,

Yo'qchilikda qilib mashmasha,
Shayton bilan mansab talasha,
Onamni ho'p, yig'latmang ota.
Sadoqati sadafla sharros,
Mehri totli bamisli charos,
Sajdagohim sizdan iltimos,
Onamni ho'p, yig'latmang ota.
Yaratganning fozil ummati,
Bek yigitlar oliy himmati,
Bobom, buvim haqqi hurmati,
Onamni ho'p, yig'latmang ota.
Qandday shirin, shirindir qadri,
Tog'dan baland, balanddir sabri,
Sizga ayon bo'ldimi jabri,
Onamni ho'p, yig'latmang ota.
Mehribon-ku xuddi onaday,
Avaylaydi sizno boladay,
Tabassumi go'zal loladay,
Onamni ho'p, yig'latmang ota.
Baxtdan qalqisin ko'zidagi yosh,
Chaqnoq ko'zlar, chaqnagan quyosh.
Shu baxtiga qilmaylik muhtoj,
Onamni ho'p, yig'latmang ota.

SVETAFOR

Yo'l chetida turar uch chiroq,
Tinim bilmas tundan-tongacha.
Insonlarni egri yo'lini,
To'g'rilaydi shu bugungacha.
Balki uni kashf qilgan inson,
Maqsadini uchta chiroqqa.
Ifodalar etib ularni
O'rnatgandir shahar-qishloqqa.
Qoyil qoldim bu kashfiyotdan,
Lug'atida yo'q yolg'on tuxmat.
Pora olmas, pulga sotilmas
Ko'zlaridan ayon muhabbat.

Amal qiling buyruqlariga,
Manzilingdan ko'ngling to'ladi.
Shu uch chiroq ishlamay qolsa,
Butun dunyo vayron bo'ladi.
Qay yurtlarda bo'lmoqda isyon,
Qayerdadir suv, o't balosi.
Svetafor ko'rsatgan yo'ldan,
Yurmaganni shudir xatosi.
U eng katta ustoz, muallim,
O'pkalama kardan va ko'rdan.
Baxting uchun bir sir bor do'stim,
" O'rnak olgin svetafordan" .

ASSALOMU ALAYKUM

Har tong sabo quchib,. turing dóstlarim,
Sizdan ham ustunmi, meni ishlarim.
Sohinchni eslatar, tungi tushlarim,
Tongni shodonlikda, kuting dostlarim.
Kuzning har tongi ham, bahor óxshaydi,
Samo yellar sochsa, dillar yashnaydi.
Ona yer shabnamdan, kóklam yashaydi,
Tongni shodonlikda, kuting dóstlarim.
Tinglang tilaklarim, bisyor gaplarim,
Yong'ir yuvsin bu olam, alam gardlarin.
Sizdan ótinchim bor, aytay shartlarim,
Tongni shodonlikda, kuting dóstlarim.

ASRA...

Turli balo-ofatlardan,
Yurtimni asra Xudo.
Uyda duo qilib turgan,
Onamni asra Xudo.
Tinmay mehnat qilib yurgan,
Otamni asra Xudo .
Yurt xizmatida bo'lgan
Akamni asra Xudo.
Xalqim-chin ko'ksi qalqon,
O'zi shoh,o'zi posbon
Jonlarin etib omon,
Yurtboshim asra Xudo
Menga oq yol korsatgan,
Ilm-u zakovot bergan.
Oq qorani tanitgan
Ustozim asra Xudo
Aytib bergan ertaklar
Doim joni xalaklar
Duoda yer falaklar
Bobomni asra Xudo
Sochlarimni taragan

Har kunimga yaragan
Mehr bilan qaragan,
Buvimni asra Xudo
Yor-birodar yaqinim ,
Dilimdagi chaqinim,
Singil-u og'a-inim,
Barisin asr Xudo.

MILLATIM

Milatim faxrim mening,
Ishonchi,ahdim mening
Qadriyatlat beshigi,
Ezguliklar beshigi.
Ko'hna tarix egasi,
Bog'ida tinchlik sasi.
Odamlari mehmondo'st,
Ro'zg'orda yo'q kami kost,
Yoshlarni qilar izzat,
Keksalarga bor hurmat.
Ezgu niyatla yashar,
Elga to'ylar yarashar.
Mahallamda qurildi.
Mushtasham bir to'yxona
Tojmahal nomi uning,
Olib keling to'yona.
Bobo-momo kelishar,
Muntazir uyning to'ri.
mehr dan tomgan nuri,
Pokiza qalbi-qo'ri.
“Yoshlar baxtli bo'lishsin”
Deya duo qilishar.
Yurtboshi omon bo'lsin,
Chorlaydi bizni baxtga.
Ishonchini oqlaymiz.
Loyiqmiz oliy taxtga.

TILAK...

Qo'l ochib qilsam duo,
Robbim ayla mustajo,
Chin dilimdan o'zingga,
Aytarman hamd-u sano.
Bergan ne'matlaringga,
Shukronalar yo'llasam.
Eng avvalo yurtimga,
Tinch-totuvlik so'rasam.
Shifo ber bemorlarga,
Najot ber mazlumlarga,
Mehr va oqibatga
Inson tashna bo'lmasin.
Qalbimizni to'ldirgin
lymon-u hidoyatga,
Aslo yaqin qilmagin.
Hiylachi,qabohatga,
lymon keltirgan banda,
Arosatda qolmasin
Haqni ko'ruvchi ko'zlar
Achchiq yoshga to'lmasin
Ochilgan gul-g'unchalar
Bevaqt xazon bo'lmasin,
Murg'ak qalblari o'ksib,
Mehrnga zor bolmasin!

SIZDAN JANNAT QARZIM BOR DADAJON

Qarang dadajon yuzingizda dog',
Sochingizga erta keldi oq.
Qalbingiz har dam paxtaday oppoq,
Sizdan jannat qarzim bor dadajon.
Men uchun yelib-yugurib,
O'zingiz yemay menga yedirib.
Dilda boringiz dildan bildirib,
Duo qilasiz unib –o'ssin deb.
Yurtga doim xizmat qilsin deb,
Zulfiyaxonim qizi bo'lsin deb.

Sizdan jannat qarzim bor dadajon.
Hali ko'p umr ko'rasiz,
Onam bilan xoji bo'lasiz.
“Ona qizim” deb erkalatasiz,
Sizdan jannat qarzim bor dadajon.
Bizning doim baxtimiz ko'ring,
Baxtmizga sog'-omon yuring.
Ilohim yuzlarga kiring,
Sizdan jannat qarzim bor dadajon.

MEHRIBONIM

Hayotdan izlagan ma'noyim onam
Har doim go'zal siz bilan yorug' olam
Doim qayg'urdingiz, dedingiz bolam
Chiroyligim, go'zalim onam.
Bolalikdan o'stirib, ulg'aytirdingiz,
Qizingiz Mohinur g'amin yedingiz,
Hech kimdan kam qilmay mehri berdingiz,
Mehribonim , jannatim onam .